

O'ZBEKISTON AHOLI MANZILGOHLARINI HUDUDIIY TARKIBI

Tuxtamuratova Dilnoza Dilmurodovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15915552>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 28-iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 30-iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 15-iyul 2025 yil

KEY WORDS

O'zbekiston shaharlari, shaharlar klassifikatsiyasi, ma'muriy-hududiy bo'linish, urbanizatsiya jarayoni, shaharcha, qishloq aholi manzilgohlari, demografik sig'im, hududiy tafovutlar, geourbanistika, shahar tipologiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududidagi shahar aholi manzilgohlarining ma'muriy-hududiy bo'ysunishi, ularning hududiy taqsimoti va urbanizatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Shaharlar aholi soni va iqtisodiy-ma'muriy funksiyalariga ko'ra guruhlariga ajratilib, hududlar kesimidagi notekis rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, shaharchalar va qishloq aholi manzilgohlarining soni, joylashuvi hamda demografik sig'imi o'rganilib, urbanistik tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar berilgan.

Har bir davlatning taraqqiyot darajasi bevosita u yerda yashovchi aholining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanganlik ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Aholi rivoji esa keng qamrovli tushuncha bo'lib, u nafaqat son jihatidan o'sishni, balki savodxonlik darajasi, sog'liq holati hamda boshqa ijtimoiy omillarni ham o'z ichiga oladi. Ko'plab davlatlarda aholi sonining ortib borishi esa uni samarali joylashtirish va joy resurslaridan oqilona foydalanish masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

Hozirgi kunda Yer yuzida millionlab aholi manzilgohlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega va bir-biridan farq qilib, ularni bir vaqtning o'zida to'liq o'rganish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli, aholi manzilgohlari turli belgilarga ko'ra guruhlariga ajratilib o'rganiladi. Respublikamizdagi mavjud aholi manzilgohlarini tahlil qiladigan bo'lsak, hozirda hududda 177 ta tuman, 120 ta shahar (jumladan, 1 tasi respublikaga bo'ysunuvchi, 31 tasi viloyat tasarrufidagi va qolganlari tuman markazlari), 1058 ta shaharcha hamda 10 990 ta qishloq aholi punktlari mavjud.

Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda aholi manzilgohlari asosan ikkita asosiy turga — shahar va qishloq aholi manzilgohlariga bo'linadi. O'zbekiston tarixida esa qadimdan poytaxtlar, yirik savdo va ma'muriy markazlar, diniy markazlar shahar sifatida tan olingan bo'lib, bunda faqat aholi soni emas, balki uning hududiy va ijtimoiy mavqei ham inobatga olingan. O'zbekiston Sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davrda esa shahar maqomini berish tartibi bir necha marotaba belgilangan. 1972-yildan boshlab, kamida 7 ming aholiga ega bo'lgan (avval esa 12 mingdan kam bo'lmasligi lozim bo'lgan) va aholining 2/3 qismi qishloq xo'jaligidan tashqari sohalarda band bo'lgan manzilgoh shahar deb e'tirof etila boshlandi.

Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 51 foizi shaharlarda istiqomat qilayotgani bois, mamlakat shaharlarini geografik jihatdan o'rganish dolzarb masalaga aylangan. Mustaqillik yillaridan boshlab esa iqtisodiyotda keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi. "Planli iqtisodiyot" o'rniga bozor munosabatlari asoslangan tizimga o'tildi. Xususan, nodavlat sektorlarni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, sarmoya jalb qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. Buning natijasida mamlakat iqtisodiyotida ijobiy o'zgarishlarga erishilib, sanoat hajmi mustaqillikdan oldingi ko'rsatkichlarga tenglashdi, neft va don bo'yicha mustaqillikka erishildi, transport va aloqa tarmoqlari rivojlantirildi hamda ijtimoiy sohalarda sezilarli siljishlar kuzatildi. Sobiq ittifoq davrida aholi ro'yxatlari orasida ham demografik tuzilishda o'zgarishlar bo'ldi. Xususan, 1979-yilda o'tkazilgan ro'yxatda O'zbekiston hududida 183 ta shahar manzilgohi mavjud bo'lsa, 1989-yilga kelib bu ko'rsatkich 221 taga yetdi. Ushbu 38 ta yangi manzilgohning 34 tasi shahar maqomini olgan bo'lib, ular ilgari shaharcha maqomida bo'lgan va asosan tuman markazi vazifasini bajargan. Bular qatoriga Qoraqalpog'iston Respublikasining Bo'ston, Shumanay, Xalqobod, Andijon viloyatining Poytug', Buxoroning Galaosiyo va Vobkent, Jizzax viloyatining Do'stlik, Namanganning Pop va To'raqo'rg'on, Samarqand viloyatining Chelak va Nurobod, Toshkent viloyatining Parkent, Farg'onaning Beshariq, Qashqadaryoning Yangi Nishon va Chiroqchi, Xorazm viloyatining Gurlan, Xonqa, Shovot hamda boshqa ko'plab aholi punktlarini kiritish mumkin.(1-jadval)

1-jadval

O'zbekiston shahar manzilgohlarining 1979 va 1989-yillardagi tarkibi

Shahar manzilgohlari kategoriyasi	1979-yil		1989-yil	
	Miqdori	Aholisi (ming kishi hisobida)	Miqdori	Aholisi (ming kishi hisobida)
Jami shahar manzilgohlari	183	6347,6	221	8059,5
10 minggaacha	93	528,6	86	519,8
10-20 ming	40	566,2	68	966,3
20-50 ming	30	869,8	44	1327,0
50-100 ming	7	502,7	7	446,4
100-250 ming	11	1641,9	12	1785,0
250-500 ming	1	483,9	3	960,8
500-1000 ming	-	—	—	—
1000 ming va undan ortiq	1	1754,5	1	2054,0

1979-1989-yillar oralig'ida O'zbekiston hududida yangi aholi manzilgohlari soni sezilarli darajada ortdi. Xususan, bu davrda ba'zi resurs obyektlari atrofida joylashgan manzilgohlar, jumladan Marjonbuloq, Uchquloq, Zafarobod (Buxoro viloyati), Yangi Angren IESi qoshidagi Nurobod shaharchasi, Hisorak suv ombori qurilishi uchun tashkil etilgan Miroqi shaharchasi shahar tipidagi manzilgohlar ro'yxatidan joy oldi. Shuningdek, bu davrda mavjud

shaharchalarning aksariyati tuman markazlari maqomini olib, shaharlar safiga qo'shildi. Umuman, 1979-1989-yillar oralig'ida har yili o'rtacha 3,8 tadan yangi shahar manzilgohi tashkil etilgan.

1989-yildan so'ng ham bu jarayon davom etdi. Xususan, Muqimiy (Farg'ona), Dehqonobod va Eski Yakkabog' (Qashqadaryo), Payshanba (Samarqand), Shalqar (Navoiy), Unhayot va Toshbuloq (Namangan) kabi manzilgohlar shahar tipidagi posyolka maqomini oldi. 1990-yilda esa Andijon viloyatidagi Qorasuv shahri tashkil etildi. Mustaqillik arafasiga kelib, respublika hududida jami 123 ta shahar va 104 ta shaharcha mavjud edi. Shu davrda Toshkent shahrining Bektemir tumani poytaxt ma'muriy tarkibiga qo'shildi. 1992-yil mamlakat urbanistik tarixida muhim yil bo'lib, turli viloyatlarda 17 ta yangi shaharcha vujudga keldi. Jumladan, Jizzax viloyatida — Zarbdor va Zafarobod, Samarqandda — Mirbozor, Sirdaryoda — Do'stlik, Toshkent viloyatida — Yangi Chinoz, Qashqadaryoda — Nuriston va Qoraqalpog'iston Respublikasida — Akshaloq hamda Qozonketken kabi manzilgohlar shahar tipidagi posyolka maqomini oldi.

1992-yilda urbanizatsiya darajasi nisbatan past hududlar — Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Surxondaryoda Angor, Do'stlik, Sariq, Hurriyat va Elbayon stansiyalari shaharchalarga aylantirildi. Xorazm viloyatida esa Gurlan, Xonqa, Shovot va Xazorasp shahar maqomini yo'qotib, shaharcha darajasiga tushdi. Keyingi yillarda ham bu jarayon davom etdi — 1994-yilda Samarqand viloyatidagi Poyariq va 1995-yilda Buxoro viloyatidagi Shofirkon tuman markazlari shahar maqomiga ega bo'ldi.

XXI asr boshida esa urbanizatsiya jarayoni sezilarli darajada sekinlashdi. Asr boshidan 2004-yilgacha bo'lgan davrda atigi 2 ta yangi shaharcha tashkil etildi. 2004-yilda qadimiy Karmana shahri Navoiy shahridan ajratilib, mustaqil shaharcha sifatida qayta ro'yxatga olindi. Xuddi shu yili Qoraqalpog'iston Respublikasida Nukus shahri tarkibidagi Qizketgan va Pristanskiy shaharchalari Nukus ma'muriy chegarasiga qo'shildi. Bu o'zgarish natijasida Nukus aholisi soni keskin ortib, yirik shaharlar qatoriga kirgan. 2005-yilda maydoni bo'yicha respublikada eng katta tuman hisoblangan Qo'ng'irotda soda zavodining ishga tushirilishi sabab Elobod shaharchasi tashkil etildi. Bugungi kunda Qo'ng'irotda bitta shahar (Qo'ng'irotda) va oltita shaharcha mavjud.

O'zbekiston geourbanistikasida tub burilish yili esa 2009-yil bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martdagi 68-sonli hamda 2011-yil 14-martdagi 71-sonli qarorlariga muvofiq, respublika bo'ylab 971 ta qishloq aholi manzilgohiga shaharcha maqomi berildi. Bu esa mamlakat urbanistik tuzilishida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistonda 2009-yilda shaharcha maqomini olgan qishloqlar

№	Ma'muriy birliklar	Shaharchalar soni
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	13
2.	Andijon viloyati	76
3.	Buxoro viloyati	67
4.	Jizzax viloyati	33
5.	Qashqadaryo viloyati	119

6.	Navoiy viloyati	39
7.	Namangan viloyati	109
8.	Samarqand viloyati	76
9.	Surxondaryo viloyati	107
10.	Sirdaryo viloyati	19
11.	Toshkent viloyati	80
12.	Farg'ona viloyati	196
13.	Xorazm viloyati	60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimiz doimiy aholisi soni 36,8 million kishiga yetgan. Shundan 18,839 million nafari (51 foiz) shahar hududlarida, 17,961 million nafari esa (49 foiz) qishloq joylarda istiqomat qiladi. Aholi soni bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinni egallaydi.


Shaharlarni o'rganish nafaqat geografik, balki ilmiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Chunki har qanday mamlakat va xalqning o'tmishi, bugungi holati, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti hamda uning jahon hamjamiyatidagi mavqei, ko'p jihatdan shaharlar taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlari bilan chambarchas bog'liq. Davlatlarning geosiyosiy ahamiyati, ijtimoiy-iqtisodiy qudrati ham ko'pincha yirik shaharlari orqali namoyon bo'ladi.

Shaharlar bu — harakatchan va dinamik ijtimoiy-geografik tuzilmalar bo'lib, ularning har biri o'ziga xos, betakror va noyob mavjudotga o'xshaydi. Har bir shaharning o'z tarixi, vujudga kelish sababi, rivojlanish jarayoni va ma'lum davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli mavjud. Boshqacha aytganda, shaharlarning ham o'z "pasporti", ya'ni yoshi, kelib chiqishi, ijtimoiy roli va hududiy ahamiyatini belgilab beruvchi asosiy belgilar to'plami mavjud.

Aynan mana shu xususiyatlari sababli ham shaharlarni o'rganish jarayoni har doim jonli, dinamik va dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Shaharlar tarixini, ularning shakllanish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilish — nafaqat ilmiy tadqiqotchilar, balki tarixchilar, madaniyatshunolar, iqtisodchilar va urbanistlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hududida urbanizatsiya jarayonining darajasi viloyatlar kesimida turlicha kechmoqda. Ma'lumotlarga asoslanib, ma'muriy birliklarni urbanizatsiya darajasiga ko'ra to'rtta asosiy guruhga ajratish mumkin:

- **yuqori urbanizatsiyalashgan hududlar**
- **o'rtacha urbanizatsiyalashgan hududlar**
- **past urbanizatsiyalashgan hududlar**



juda past urbanizatsiyalashgan hududlar


3-rasm. O'zbekistonda shahar va qishloq aholisining salmog'i (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan).

Bu toifalarga ajratishda asosiy mezon sifatida mamlakat urbanizatsiyasining o'rtacha ko'rsatkichi qabul qilinadi. Mazkur mezonlarga tayangan holda, **Namangan (64,8 %)** va **Farg'ona (56,9 %) viloyatlari** yuqori urbanizatsiyalashgan hududlar sirasiga kiradi. **Andijon (52,2 %)**, **Toshkent viloyati (50 %)**, **Navoiy (49 %)** va **Qoraqalpog'iston Respublikasi (48,9 %)** esa o'rtacha urbanizatsiya darajasiga ega. **Jizzax (46,9 %)**, **Sirdaryo (43 %)** va **Qashqadaryo (42,8 %)** viloyatlari past urbanizatsiyalashgan hududlar qatoriga kirsam, **Buxoro (36,8 %)**, **Samarqand (36,7 %)**, **Surxondaryo (36,2 %)** va **Xorazm (33,1 %)** viloyatlari juda past urbanizatsiyalashgan hududlar sirasiga mansub.

Shu bilan birga, O'zbekistonda aholi manzilgohlariga shahar maqomini berish maxsus belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Aholi sonining kamida **7 ming kishi** bo'lishi;
- Aholining **kamida 2/3 qismi qishloq xo'jaligidan tashqari sohalarda band bo'lishi**;
- Hududda **infratuzilma va kommunikatsiya imkoniyatlarining mavjudligi**;
- Binolar va hudud ko'rinishining shaharga mos bo'lishi

O'zbekistonning shahar aholi punktlari hududiy jihatdan notekis taqsimlangan bo'lib, respublika bo'yicha **120 ta shahar aholi manzilgohi** mavjud. Bu esa hududlar bo'yicha urbanizatsiya jarayonini o'rganish va tahlil qilishni geografik nuqtayi nazardan ham dolzarb masalaga aylantiradi.



4-rasm. O'zbekiston viloyatlarida shaharlar soni (2023-y) (Jadval statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan).

Statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatdagi shahar aholi manzilgohlari ma'muriy-hududiy birliklar kesimida bir xilda joylashmagan. Jumladan, **Toshkent viloyati** shaharlar soni bo'yicha yetakchilik qilib, unda jami **16 ta shahar** mavjud. Ulardan **7 tasi viloyat bo'ysunuvidagi**, qolgan **9 tasi esa tuman markazlari** hisoblanadi. Shu tariqa, ushbu viloyatda mamlakatdagi jami shaharlarning **13 foizi** joylashgan.

Shundan so'nggi o'rinlarda **Qoraqalpog'iston Respublikasi** va **Qashqadaryo viloyati** qayd etilib, har birida **12 tadan shahar** mavjudligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, **Andijon, Buxoro va Samarqand viloyatlarida** esa shaharlar soni **11 tani** tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra, shahar aholi manzilgohlari boshqaruv (ma'muriy) jihatdan uchta asosiy toifaga ajratiladi. Bular: **respublikaga bo'ysunuvchi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarga bo'ysunuvchi**, hamda **tumanga bo'ysunuvchi shaharlardir**. Bu tartib **O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi (Toshkent, 2002)** hujjatida belgilab qo'yilgan.

Respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar tarkibiga odatda aholisi **500 ming nafardan ortiq** bo'lgan, yirik ma'muriy, iqtisodiy, sanoat va madaniy markaz vazifasini bajaruvchi shaharlar kiradi. Bu toifadagi shaharlar orasida poytaxtlar, harbiy-strategik ahamiyatga ega shaharu sanoat va xizmatlar sohasida yetakchi bo'lgan millioner shaharlar alohida o'rin tutadi. Markaziy Osiyo mintaqasida aynan uchta shahar — **Toshkent (O'zbekiston), Almati va Ostona (Qozog'iston)** shunday maqomga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarga bo'ysunuvchi shaharlar esa aholisi kamida **30 ming kishi** bo'lishi hamda iqtisodiy-ijtimoiy faoliyat, ishlab chiqarish va transport markazi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizdagi mavjud 120 ta shahar aholi manzilgohining **31 tasi yoki 25 foizdan ortig'i** aynan ushbu toifaga mansub. Qolgan shaharlar esa tuman markazlari maqomida bo'lib, ular mahalliy boshqaruv

tizimining asosiy bo'g'ini sanaladi. Ahamiyatlisi shundaki, viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar mamlakat hududida teng taqsimlanmagan. Masalan, **Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida** bittadan viloyatga bo'ysunuvchi shahar mavjud bo'lsa, **Farg'ona viloyatida ularning soni to'rtta, Toshkent viloyatida esa yettita** ni tashkil etadi.

Tuman bo'ysunuvidagi shaharlar tarkibiga odatda tuman markazi vazifasini bajaruvchi, sanoat korxonalarini faoliyat yuritayotgan, ijtimoiy va madaniy infratuzilma obyektlari, savdo nuqtalari hamda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlangan aholi manzilgohlari kiradi. Ushbu shaharlarning aholisi kamida 7 ming kishi bo'lib, ularning asosiy qismi, ya'ni 2/3 qismi qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishlamagan bo'lishi lozim.

Diagrammadan anglashiladiki, tuman bo'ysunuvidagi shaharlar soni respublika miqyosida 88 tani tashkil etib, ular hududlarga juda nomutanosib taqsimlangan. Eng ko'p tuman bo'ysunuvidagi shaharlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (11 ta) va Qashqadaryo viloyatida (10 ta) joylashgan. Shuningdek, Andijon, Buxoro, Samarqand hamda Toshkent viloyatlarida ushbu toifadagi shaharlar soni teng — har birida 9 tadan. Xorazm viloyatida 1 ta, Sirdaryoda 2 ta va Navoiy viloyatida 4 ta shahar mavjud bo'lib, ular respublikadagi eng kam sonli tuman bo'ysunuvidagi shaharlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, shaharlarni o'rganishda ularning ko'lamiga qarab tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, shaharlarni toifalarga ajratish jarayoni geourbanistika fanida asosiy metodlardan biri hisoblanadi. Bunda klassifikatsiya va tipologiya tushunchalari farqlanadi. Klassifikatsiya — shaharlarni aholisi soni kabi miqdoriy ko'rsatkichlarga asosan guruhlash jarayoni bo'lsa, tipologiya esa ularning bajaradigan asosiy iqtisodiy, ijtimoiy yoki ma'muriy funksiyasiga ko'ra tasniflashdir.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, "klass" tushunchasi fan terminologiyasiga shved olimi Karl Linney tomonidan kiritilgan bo'lib, u o'z tadqiqotlarida o'simlik va hayvonot dunyosini guruhlash uchun klassifikatsiyadan foydalangan. Bugungi kunda klassifikatsiya usuli ko'plab murakkab va son jihatdan katta obyektlar tizimlashtirilishida keng qo'llaniladi. Bu uslub yordamida shaharlarni ham tartibga solish va ularni ma'lum mezonlar asosida guruhlash imkoniyati yaratiladi.

Aholi soniga qarab shaharlar miqdoriy jihatdan 3 asosiy kategoriyaga: katta, o'rta va kichik shaharlarga bo'linadi. Maxsus ilmiy izlanishlarda esa bu tasnif yanada mukammal va batafsil ko'rinishda ishlab chiqilgan bo'lib, shaharsozlik va shaharlar geografiyasida aholining soni asosida quyidagi klassifikatsiya qabul qilingan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ayni paytda mamlakatimiz hududida 120 ta shahar aholi manzilgohi mavjud. Ushbu shaharlar aholisi soniga qarab tasniflangan holda 8 ta guruhga ajratiladi. E'tiborga molik jihati shuki, har bir guruhga respublikamiz hududida kamida bittadan shahar to'g'ri keladi. 2018-yilgacha O'zbekiston hududida "eng yirik shaharlar" kategoriyasiga mansub birorta ham shahar mavjud bo'lmagan. Biroq, 2023-yil holatiga kelib bu toifadagi shaharlar soni ikki taga yetdi.

Mayda shaharlar. O'zbekiston hududida mayda shaharlar toifasi juda kam uchraydi. Ularning shakllanishi, asosan, temiryo'l bekatlari atrofida yoki ma'lum bir foydali qazilmaning ochilishi natijasida yuzaga kelgan sanoat va resurs shaharlariga to'g'ri keladi. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda bunday shaharlar soni atigi 3 tani tashkil etadi.

Kichik shaharlar. Mavjud shahar aholi manzilgohlarining qariyb beshdan bir qismi kichik shaharlar toifasiga mansubdir. Bu toifadagi shaharlar respublika aholisining 3,4 foizini o'z bag'riga oladi. Aksariyat hollarda bunday shaharlar hech qanday ma'muriy markaz vazifasini

bajarmaydi. Ularning shakllanishi ko'pincha yangi yer maydonlarini o'zlashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, kichik sanoat zonalarini va ayrim resurs bazalarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Yarim o'rta shaharlar. Bu toifadagi shaharlarning asosiy qismini tuman ma'muriy markazlari tashkil etadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda yarim o'rta shaharlar soni 50 taga yetib, ularning umumiy shaharlar orasidagi ulushi 42 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa toifadagi shaharlar orasida eng yuqori hisoblanadi. Shunga qaramay, ushbu shaharlar mamlakat aholisining atigi 14,2 foizini joylashtirgan bo'lib, aholisi soni jihatidan "Millioner", "Yirik", "Katta" va "O'rta" shaharlar darajasiga yetmaydi.

O'rta shaharlar. Geourbanistika nuqtai nazaridan O'zbekiston uchun o'rta shaharlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular, asosan, viloyatlarning ikkinchi darajali yirik shahar markazlari bo'lib, ba'zan o'z hududiy "okrug" markazi sifatida faoliyat yuritadi. Bunga Kattaqo'rg'on, Denov, Chust, Shahrixon, Zarafshon, To'rtko'l, Kogon shaharlarini misol keltirish mumkin. Aytish lozimki, ularning orasida Guliston va Nurafshon shaharlari viloyat markazi maqomiga ega. Shuningdek, Zarafshon shahri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-iyundagi 5738-sonli farmoniga muvofiq respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar qatoriga kiritilgan.

Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar. Respublikamizda mavjud shaharlarning qolgan qismi aynan tuman ma'muriy boshqaruviga bo'ysunadi. Ayni paytda Denov, Shahrixon, Koson, Chust, Urgut, Asaka, Parkent, Chortoq va Kosonsoy kabi shaharlar o'z salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar maqomiga ega bo'lishi uchun yetarli imkoniyatlarga ega. Chunki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy hujjatlarida viloyatga bo'ysunuvchi shahar maqomini berish uchun, shaharning aholisi kamida 30 ming kishi bo'lishi, muhim iqtisodiy, ma'muriy va madaniy markaz vazifasini bajara olishi talab etiladi. Yuqorida tilga olingan shaharlar aynan ana shunday mezonlarga mos tushadi va tegishli viloyatlarning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutadi.

Katta shaharlar. Ushbu toifa, to'liq viloyat markazi sifatida faoliyat yurituvchi va 100 ming nafardan ortiq aholisi bo'lgan shaharlarni qamrab oladi. Bunday shaharlar o'z infratuzilmasi, arxitekturasi va zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ularda ishlab chiqarish, transport va madaniy sohalar yuqori darajada rivojlangan bo'lib, shahar hayotining barcha jabhalarida urbanistik xususiyatlar aniq namoyon bo'ladi.

Yirik shaharlar. O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan bu toifadagi shaharlar soni 6 tani tashkil etadi. Ular o'zining qadimiy tarixi, boy madaniy merosi, rivojlangan sanoati va keng infratuzilmasi bilan boshqalardan farqlanadi. Bunday shaharlar respublika miqyosidagi yirik iqtisodiy, ilmiy va madaniy markaz vazifasini bajarib kelmoqda.

Eng yirik shaharlar. Ushbu toifa shaharlar mamlakatimizda 2016-yilga qadar mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, bugungi kunda ularning soni 2 taga yetdi. Samarqand shahri ko'p funksiyali, tarixiy-madaniy, turizm va sanoat markazi sifatida, Namangan shahri esa Farg'ona vodiysining yuqori darajada urbanizatsiyalashgan, yirik sanoat va aholisi tez o'sayotgan shahri sifatida ushbu toifaga kiritildi.

Millioner shahar. Mamlakatimiz poytaxti — Toshkent shahri uzoq yillar davomida respublikamizdagi yagona millionaire shahar bo'lib kelmoqda. Hozirda shaharning aholisi 2,9 milliondan oshgan. Bu holat shahar infratuzilmasi va ishlab chiqarish salohiyatining yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratgani holda, ekologik holatga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shaharchalar. O'zbekistonning geourbanistik tizimida shaharlar qatori shaharchalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shaharcha — bu aholi soni kamida 2 ming kishidan iborat bo'lib,

qisman shahar infratuzilmasi talablariga javob beruvchi aholi manzilgohi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 1058 ta shaharcha mavjud bo'lib, ularning aksariyati 2009-yilda rasmiy ravishda shaharcha maqomini olgan.

2009-yilda mamlakatimizda amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy islohotlar O'zbekiston urbanizatsiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2008-yilda mamlakat aholisi soni 26,8 millionni tashkil etgan bo'lib, shundan 9,6 millioni yoki 35,8 foizi shaharlarda istiqomat qilgan. 2009-yildagi islohotlardan so'ng esa aholining shaharlarda istiqomat qiluvchi qismi keskin oshib, 14,3 million nafarga yetdi va bu jami aholining 51,5 foizini tashkil etdi. Bu esa qisqa muddat ichida mamlakat urbanizatsiya darajasida jiddiy o'sishni ta'minlagan muhim demografik ko'rsatkich sanaladi. Mazkur davrdagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar natijasida respublikadagi shaharchalar soni ham keskin oshdi va 1058 taga yetdi. Ularning respublika hududlari bo'yicha taqsimoti esa ancha notekis ekanligi kuzatiladi. Shaharchalar soni bo'yicha Farg'ona viloyati yaqqol yetakchilik qilmoqda. Bu viloyatda jami 194 ta shaharcha mavjud bo'lib, bu mamlakatdagi barcha shaharchalarning 18,3 foizini tashkil etadi. Farg'ona viloyatidagi shaharchalar soni Toshkent va Samarqand viloyatlaridagi shaharchalar sonidan ikki baravar, Navoiy va Jizzax viloyatlaridagi shaharchalar sonidan to'rt baravar, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Sirdaryo viloyatlaridagi shaharchalar sonidan esa yetti baravar ko'pdir. Shuningdek, Qashqadaryo, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida ham yuzdan ortiq shaharcha mavjud bo'lib, ular hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. 2009-yildagi ma'muriy-hududiy islohotlar nafaqat mamlakat urbanizatsiya darajasini sezilarli oshirdi, balki hududlar kesimida aholi manzilgohlarining qayta taqsimlanishiga ham sabab bo'ldi. Ayniqsa, shaharchalar sonining keskin ortishi, respublika hududlarining iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmasini takomillashtirish, mahalliy boshqaruv tizimini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashga zamin yaratdi.

Mamlakatimizdagi qishloq aholi manzilgohlari soni ma'muriy-hududiy birliklar kesimida bir xil taqsimotga ega emas. Ushbu tafvutga, avvalo, hududlarning maydoni, tabiiy-geografik sharoiti, demografik zichligi, iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda tarixiy shakllanish omillari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning eng ko'p qishloq aholi punktlariga ega hududlari qatoriga Samarqand, Buxoro, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati kiradi. Ushbu hududlarda qishloq manzilgohlarining soni yuqori bo'lishi ularning katta maydonga egaligi, tabiiy resurslar salohiyati va tarixan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududlar hisoblanishi bilan izohlanadi. Aksincha, eng kam qishloq aholi punktlari Sirdaryo, Namangan va Andijon viloyatlarida joylashgan. Biroq ushbu viloyatlarda qishloq aholi manzilgohlari soni kam bo'lishiga qaramay, ularning demografik sig'imi juda yuqori sanaladi. Ya'ni, ushbu hududlardagi har bir qishloq manzilgohida istiqomat qiluvchi aholining o'rtacha soni boshqa viloyatlardagidan ancha yuqoridir. Aholi soni bo'yicha esa eng ko'p qishloq aholisi Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida istiqomat qiladi. Mazkur viloyatlarning har birida mamlakat umumiy qishloq aholisining 10 foizidan ortig'i to'g'ri keladi. Bu esa ushbu hududlarning nafaqat maydon jihatidan, balki demografik sig'imi va iqtisodiy salohiyati jihatidan ham respublikada muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida urbanizatsiya jarayonlari va aholi manzilgohlarining shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-geografik sharoitlarning murakkab o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan bo'lib, mamlakatning hududiy rivojlanishida o'ziga xos geourbanistik qonuniyatlarni namoyon qilmoqda. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston urbanistik tizimi tarixiy evolyutsiya, ma'muriy-hududiy islohotlar, demografik jarayonlar va iqtisodiy resurslarning joylashuvi asosida shakllangan murakkab va notekis tuzilishga ega.

Respublikadagi shaharlarning tasnifi nafaqat aholi soni, balki ularning iqtisodiy, madaniy va ma'muriy funksiyalaridan kelib chiqqan holda 8 ta guruhga ajratilgani urbanizatsiya

jarayonining murakkabligini va mintaqaviy tafovutlarini yaqqol namoyon etadi. Mamlakatda 2009-yildagi ma'muriy islohotlar va keyingi yillarda amalga oshirilgan hududiy-modernizatsiya siyosati natijasida shaharchalar sonining keskin oshishi, yirik va o'rta shaharlarda sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengayishi, ayrim hududlarda esa urbanizatsiya jarayonining sustligi kuzatilmoqda. Bu esa respublika urbanistik makonida markaz-periferiya modelining shakllanishiga sabab bo'layotganini ko'rsatadi. Shuningdek, qishloq aholi punktlari soni va ularning demografik sig'imi hududlar bo'yicha katta tafovutlarga ega bo'lib, bu holat viloyatlarning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy joylashuvi, iqtisodiy rivojlanish sur'atlari va transport infratuzilmasining rivojlanish darajasi bilan izohlanadi. Ayniqsa, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining qishloq aholisining yuqori zichligi, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida esa qishloq punktlari sonining kamligi respublika hududlarining demografik va urbanistik nomutanosibligini ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelish mumkin:

-Mamlakat urbanizatsiya tizimi o'zining tarixiy-madaniy ildizlari va iqtisodiy ixtisoslashuvi asosida shakllangan bo'lib, uni kelgusida barqaror va muvozanatli rivojlantirish uchun regional urbanistik siyosatni ilmiy asosda qayta ko'rib chiqish zarur.

-Hududlararo urbanizatsiya tafovutlarini bartaraf etish uchun kichik va yarim o'rta shaharlarning infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ularni sanoat va xizmat ko'rsatish markazlariga aylantirish orqali respublika urbanistik makonini muvozanatlashtirish mumkin.

-Respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar va aholi zich hududlarda atrof-muhit muammolarini hisobga olgan holda barqaror shaharsozlik siyosati olib borish, yirik shaharlar sig'imini nazorat qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash muhim.

-Shaharchalar va qishloq aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish orqali ulardan mintaqaviy taraqqiyot drayveri sifatida foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

-Urbanizatsiya jarayonining yangi tendensiyalarini (rural-urban migratsiya, resurs shaharlarning rivojlanishi, ichki urbanizatsiya) ilmiy kuzatib borish va ularni strategik rejalashtirishga jalb etish mamlakat urbanistik tizimining zamonaviy talablarga mos shakllanishini ta'minlaydi.

Umuman, O'zbekiston hududiy urbanistik tizimi kelgusida barqaror, muvozanatli va ekologik xavfsiz shaharsozlik siyosatini shakllantirish, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va urbanizatsiya jarayonlarini boshqarish bo'yicha keng ko'lamlil ilmiy-amaliy tadqiqotlar va islohotlarni talab qilmoqda. Mazkur tadqiqot bu borada dastlabki ilmiy asos va tahliliy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013. – 307 с.
2. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.
3. Bo'riyeva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o'quv qollanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
4. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие. – М.: 1999. – 124 с.

5. 2014 World Population Data Sheet of the Population Reference Bureau.
6. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана.-Т., 2009.
7. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. Т., 2002.
8. Soliev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi).-Т.: 2009.
9. Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari.-Т.: 2008.

